



TA'LIM TIZIMIGA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Nuralibek Bozarov Saidmurod o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti
nuralibek_bozarov@dtpi.uz, <https://orcid.org/0000-0002-6219-159X>

Bozorova Aziza Saidmurot qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7659678>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 21-fevral 2023 yil

KEY WORDS

xalqaro tadqiqotlar, ta'lim
tizimi, me'yoriy-huquqiy asos,
PISA

ABSTRACT

Barchamizga ma'lumki, hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda barcha sohada rivojlanish va taraqqiyotni ko'rishimiz mumkin. Ta'lim sohasida ham bir qancha xalqaro tadqiqot ishlarining olib borilayotganligini misol qilishimiz mumkin. Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimi rivojlangan bir qancha xorijiy davlatlarda olib borilayotgan xalqaro tadqiqotlarning O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy qilishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yanada kengroq o'rganish va tadqiq etish bosh maqsad qilib belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, XXI asr globallashtirish, rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davr bizdan yetuk malakali hamda yuqori soft skills (moslashuvchanlik) ga ega kadr bo'lishni taqozo etadi. Bu esa o'z-o'zidan, puxta o'ylangan, uzoqqa ko'zlangan ta'lim tizimi zarurligini ko'rsatadi. O'tgan asrda insonlarga o'z sohasida ma'lum ma'lumotlar va ensiklopedik bilimlarni bilish yetarlicha bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda butun boshli ma'lumotlarning elektron bazasi, tezkor qidiruv tizimlarining yaratilishi bu ko'nikmalarni ahamiyatini pasaytirdi. Hozirgi zamon mutaxassisidan kreativ fikrlashni, vaqtdan unumli foydalanish (time management)ni, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilishni, yaratuvchanlikni talab qiladi.¹

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikmalarga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda.

Jadal rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda yangi iqtisodiy sharoitlar ro'yobga keldiki, bu barcha sohalarda, xususan, ta'lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Fan va texnika taraqqiyotining jadal kechayotgani, kompyuter texnikasining

¹ PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft))/ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/ Umumiy tahrir – U.Sharifxodjayev, D.Norboyeva / Tarjima – M. Maxsudov/ Xalq ta'limi vazirligi – Toshkent, 2020-yil 6-bet

keng qo'llanilayotganligi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar ko'lamining tobora oshib borayotganligi, ta'limni tubdan yaxshilashni, fanlar bo'yicha milliy va mahalliy sharoitlarga mos keladigan hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan dastur va darsliklar, ta'limning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekistonning ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda berilayotgan ta'lim sifatiga xalqaro doiradagi ekspertlarning bahosi juda muhim. Sababi, hech qaysi mamlakat o'z ta'lim tizimiga xolis baho bera olmaydi. Xalqaro tadqiqotlarda O'zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechog'lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko'rsatadi. Bu nima uchun muhim? Avvalo, ta'limdagi o'zgarishlarda to'g'ri yo'ldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi.

ASOSIY QISM.

Xalqaro tadqiqotlar va ularning O'zbekistonda joriy qilinishi. Hozirgi kunda dunyoda yuzdan ortiq davlat o'z mamlakatida joriy etilgan ta'lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 8-dekabrida 997-sonli qarorni qabul qildi. Qarorga ko'ra, quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi: ²

1. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS)- boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;
2. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS)- 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;
3. The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;
4. The Teaching and Learning International Survey (TALIS)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun; Yuqoridagi keltirib o'tilgan xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi.
-xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtirok etish;
-ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori.
<https://lex.uz/docs/-4097073>

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;
 - ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
 - ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
 - umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
 - O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
 - xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
 - o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash. Buning uchun, 2019-yil 1-fevraliga qadar, Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi.
 - xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
 - xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish;
 - o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021-yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish;
 - xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish;
 - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar) da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash;
 - umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;
 - umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish.
- Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'mimlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy, mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish;
- Xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlat ilmiy-texnika

dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash va amalga oshirish vazifalari yuklatiladi.

XULOSALAR

Xalqaro tadqiqotlar ahamiyati hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, an'anaviy ta'lim tizimida uchramaydigan, ta'lim sifatini baholaydigan PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo'lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo'lishi mumkin. Bu esa bolani har taraflama yondashuvga, kreativ fikrlashga undaydi. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov hamdir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda.

Zero, oldimizga mamlakatimizni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, albatta bunga ta'lim tizimini rivojlantirmasdan, sohaga innovatsion yangiliklarni olib kirmasdan erishib bo'lmaydi.

References:

1. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. U.Sharifxodjeyev, D.Norboyeva / Tarjima – M. Maxsudov/ Xalq ta'limi vazirligi – Toshkent, 2020-yil 6-b.
2. Journal of Personality and Social Psychology, Vol. 48/2, pp. 393-399, <https://pdfs.semanticscholar.org/a2f7/272fe76ce1adfc873382b398a514256f5324.pdf> (accessed on 14 February 2018).
3. Amabile, T. (1985), «Motivation and creativity: effects of motivational
4. orientation on creative writers».
5. <https://nces.ed.gov/surveys/pirls/>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4097073>
7. Ахмаджонова Ё.Т. PISA: «Студентов нужно научить думать, а не запоминать»// Научный журнал «Гуманитарный трактат».-2021.-с.12-15
8. Hakimovich, H. N., Mustafakulovna, M. O., Khodiyevna, R. R., & Narzulloevna, A. S. (2020). Education system mission in the conditions of civil society development. Journal of Critical Reviews, 7(5), 832-837.
9. Абдуллаева, Г. А., & Аллаярова, С. Н. (2021). ТАРБИЯ ЖАРАЁНИ СИФАТИНИ КВАЛИМЕТРИК МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. Современное образование (Узбекистан), (12 (109)), 63-70.
10. Bozarov, N. (2022). O'RTA OSIYODA BIRINCHI RENESSANS DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI TARAQQIYOTI.z